



SILENCE AS COMMUNICATION IN JAPANESE CULTURE

Obloqulova O'g'iloy Abdurayim qizi

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Teacher of the Department of Japanese Philology,

obloqulova97@mail.ru

Boliboyeva Xumora Baxtiyor qizi

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Student of the Department of Japanese Philology,

xumoraboliboyeva@gmail.com

ABSTRACT: *This article is devoted to the study of the culture of silence in Japan. It analyzes the meaning of the concept “空気を読む” (kuuki wo yomu) and its role in expressing personal opinions while maintaining social harmony. The importance of silence in strengthening mutual respect among individuals, as well as in preserving etiquette and balance within society, is highlighted. Furthermore, the article emphasizes the role of the culture of silence in the social intelligence of the Japanese people and in their methods of adapting to society.*

Keywordsd: *Japan, culture, silence, Japanese culture.*

Obloqulova O'g'iloy Abdurayim qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Yapon filologiyasi kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

obloqulova97@mail.ru

Boliboyeva Xumora Baxtiyor qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Yapon filologiyasi kafedrasi talabasi

xumoraboliboyeva@gmail.com

**YAPONIYA MADANIYATIDA JIMLIK - SUKUT ORQALI
MULOQOT**



ANNOTATSIYA: Ushbu maqola Yaponiyada jimlik madaniyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada “空気を読む” konseptining mazmuni, shaxsiy fikrni ifodalash va jamiyatdagi muvozanatni saqlashdagi roli tahlil qilinadi. Jimlikning insonlar o'rtasidagi hurmatni mustahkamlash, jamiyatdagi odob-axloq va muvozanatni saqlashdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada jimlik madaniyatining yaponlarning ijtimoiy intellekti va jamiyatga moslashish usullaridagi o'rni ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Yaponiya, madaniyat, jimlik, yaponiya madaniyati.

Globalashuv jarayonida turli mamlakatlar orasida muloqot kengayib bormoqda. Ammo madaniyatlararo tafovutlar ba'zi bir tushunchalarning noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelmoqda. Jimlik shunday tushunchalardan biridir. Ko'plab jamiyatlarda jimlik muloqotdagi uzulish, noqulaylik va e'tiborsizlik belgisi sifatida qaraladi. Yaponiya madaniyatida esa mulohazalilik va hurmat ifodasi sifatida qaraladi. Yaponlar suhbat davomida ortiqcha gapirishdan ko'ra, vaziyatni his qilib, tinglashni muhim deb bilishadi. Shu sababli, jimlik muloqotning bir qismi hisoblanadi. Tarixiy jihatdan Yaponiya madaniyatida jimlik tushunchasi samuray etikasi va an'anaviy estetik qarashlar bilan bog'liq.

Miyamoto Musashining mashhur asarlaridan biri The Book Of Five Rings¹ asarida jangchi uchun ichki xotirjamlik muhim ekanligi hamda, vaziyatni so'zsiz boshqarish ahamiyatiga urg'u berilgan. Yaponiyaning harbiy tizimida ham jimlik - sabr va ichki xotirjamlik belgisi. An'anaviy estetikada esa “わ” tamoyili va “ま” konsepsiyasi mavjud. Bu tushunchalarda sukut - hurmat va ichki tafakkur deb qaraladi.

Yaponiya aholinising turmush tarzida sukunat - bu tovushsizlik emas. Sukunat - bu hurmat. Zamonaviy va shovqinli hayot insonlarni tobora ko'proq stressli vaziyatlarga olib kelmoqda. Zich navbatlarda va transportlarda sodir bo'ladigan tortishuvlar va kutuvlar insonlarni odobsiz qilmoqda. Biroq, yaponiyada jimlik barchasiga yechim. Ular transportda va navbatlarda sukunatni afzal

¹ <https://book.hr-director.ru/docs/005.pdf>



ko‘rishadi. Yapon xalqi jimlik orqali odobni saqlab qolishadi. Shu tufayli, jamoat joylarida kelishmovchiliklar kam uchraydi. Yaponiyaga tashrif buyurgan mehmonlarni eng hayratga soladigan vaziyatlardan biri jamoat joylarida sokin navbat kutayotgan Yapon xalqi hisoblanadi.

Ular bir - birini noqulay vaziyatda qoldirmaslik uchun masofa ham saqlab turishadi. Bundan tashqari, transportlarda telefon orqali yoki atrofdagi insonlar bilan muloqot qilish madaniyatsizlik belgisi. Odatda kitob mutolaa qilib, shaxsiy ishlari bilan band bo‘lishadi va sokinlikni saqlab qolishadi. Shuningdek, eng tezkor poyezd Shinkansen ham zamonaviy shovqin izolyatsiyadan foydalanib, yo‘lovchilar uchun shovqinsiz muhit yaratib bergan. Umumiy qilib aytganda, zamonaviy omillar sokin yapon xalqini chetlab o‘tmoqda. Yaponiyaliklar jimlikni saqlab qolishmoqda.

Insonlar bir davlatdan boshqa davlatga ko‘chib o‘tsa, madaniy shok holatini boshdan kechirishadi. Yaponiyaga yangi kelgan chet ellik fuqarolar tozalik, tartibdan tashqari insonlar bilan muloqot qilishda madaniy shok holatiga duch kelishadi. Bir nechta davlatlarda ochiq muloqot mavjud. Do‘stlar bilan, oila bilan suhbatlashib yurish odatiy hol. Ba‘zan jamoat joylarida suhbatlashish hech kimning nazarini jalb qilmasligi mumkin. Biznes uchrashuvlarda esa asosiy urg‘u fikr almashish va muloqotga qaratiladi. Yaponiya hayotida bunday holatlar farq qiladi. Shu sababli, moslashish jarayoni qiyin bo‘lishi mumkin.

Yaponiyada suhbatlashishdan ko‘ra, “場の空気を読む” iborasini ustun ko‘rishadi². Bu ibora to‘g‘ridan - to‘g‘ri tarjima qilinganda, “Havoni o‘qish” ma’nosini anglatadi. Lekin, asosiy mazmun - mohiyati boshqa insonning tuyg‘ularini tushunishdan iborat. Biznesda tuyg‘uni his qilish juda muhim qobiliyat hisoblanadi. Bunday qobiliyatga ega bo‘lmagan shaxslarda rahbarlik qilish imkoniyati kam. Chunki, rahbar sokinlik bilan vaziyatni boshqarishi zarur. Do‘stlikda ham kerakli qobiliyat. Har bir inson suhbatdoshining vaziyatini his qila olishi rishtalarni mustahkam qiladi. Bu hayot tarzida yashaydigan Yaponlar boshqa xalqlar nigohida noto‘g‘ri tushunilishi mumkin. Bunday noqulay vaziyatlarni oldini olish uchun

² https://en.wikipedia.org/wiki/Ba_no_kuuki_wo_yomu



tashrif buyuradigan mamlakatlarning madaniyatlarni oldindan o'rganib, moslashib olish lozim.

Xulosa

Jimlik turli madaniyatlarda ma'no jihatdan farq qiladi. Ko'plab jamiyatlarda kommunikativ uzulish, Yaponiyada esa fikrlarni va xotirjamlikni nazorat qilishdir. Yaponlar uchun jimlik – shaxsiy fikrni yashirish emas, balki vaziyatni va boshqalarning his-tuyg'ularini hisobga olish demakdir. Shuning uchun ular jamoaviy muhitda shovqin qilish yoki o'z fikrini keskin ifoda etishdan ko'ra, tinch va muloyim bo'lishni afzal ko'radilar. Jimlik nafaqat ichki tinchlikni, balki atrofga nisbatan hurmatni ham saqlab qoladi. Bu insonlarni bir - biriga nisbatan muloyim qiladi. Shu bilan birga, jamiyatda muvozanat ushlab turiladi va odob - ahloq jamiyatning bir bo'lagi ekanligi his qilinadi. Har bir davlat madaniyatining go'zal va takrorlanmas tomonlari mavjud. Ularni o'rganib borish orqali dunyoqarash kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.Yu. Moiseeva, O.I. Antipova "Silence as a Type of Nonverbal Communication in Japanese Culture" (2022)
2. Ургадулова А.И. Невербальная коммуникация в Китае, Японии и Якутии. International journal of professional science. 2004; № 12: 44 – 50.
3. Рогозная Н.Н., Мацура А. Японские невербальные средства общения. Язык, сознание, коммуникация. 2001: 66–76
4. Корнева А.Г. Молчание в японской культуре (опыт лингвосомиотического анализа). Вестник НГУ. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/molchanie-v-yaponskoykulturne-opyt-lingvosemioticheskogo-analiza>
5. Oblokulova Ogiloy Abdurayim qizi. (2022, февраль 4). Researches on semantic-functional properties of japanese advertising. Scientific approach to the modern education system, Paris, France. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5971356>



6. Obloqulova, O. (2025). Yapon tilshunosligida reklama matnlarda milliy va madaniy qadriyatlarning tadqiqi. B academic research in modern science (T. 4, Выпуск 66, сс. 178–184). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17773923>